DOI

Xalqo`ziyeva D.B.
Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

QOIDALI O`YINLAR BOLALARGA TA'LIM BERISH SHAKLI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maktabgacha yoshdagi bolalarni eng asosiy va yetakchi faoliyatlaridan biri o'yindir.Yetakchi faoliyat deb ayni shu yoshda tez-tez ko'zga tashlanib turadigan xatti-harakatlariga aytamiz. Asosiy faoliyatjarayonida bolaning psixik jihatidan o'sishida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Maqolada qoidali o`yinlar bolalarga ta'lim berish shakli sifatida mavzusida fikr yurutilgan.*

Kalit so'zlar: *Qoidali o`yinlar, mashg'ulot samaradorligi, didaktik o'yinlarning xususiyatlari,, ta'limga aloqador masalalar, mashg'ulot jarayonida o'yin, o`yinning qoidalari.*

Khalgoziyeva D.B.
Teacher
Kokand State Pedagogical Institute

RULED GAMES AS A FORM OF EDUCATION FOR CHILDREN

Annotation. *The article discusses the problems of developing the professional competencies of future educators and the role of future educators in the system of preschool education, the general principles of professional activity in preschool education, the use of innovative methods and methods in the education system.*

Key words: *Games with rules, learning efficiency, features of didactic games, issues related to learning, playing during learning, rules of the game.*

Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni eng asosiy va yetakchi faoliyatlaridan biri o'yindir.Yetakchi faoliyat deb ayni shu yoshda tez-tez ko'zga tashlanib turadigan xatti-harakatlariga aytamiz. Asosiy faoliyatjarayonida bolaning psixik jihatidan o'sishida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. O'yin makatabgacha yoshdagi bolalaning har tomonlama rivojlantirishningmuhim vositasi, ularning asosiy faoliyatida bola shaxsiy faoliyat subyektisifatida shakllana boshlaydi.

O'yin turkumlari:1. Ijodiy o'yinlar.2. Qoidali o'yinlar.

Qoidalio'yinlarga to'xtalar ekanmizo'z navbatida qoidali o'yinlar ham bir necha turlarga bo'linadi. 1)Didaktik o'yinlar.2)Harakatli o'yinlar.3)Musiqaviy o'yinlar.

Qoidali o'yinlar barcha o'yinlar kabi amaliy faoliyat hisoblanadi. Lekin bolalarga belgilangan qoidaga amal qilishlari talab etiladi. Belgilangan qoidalar

https://wordlyknowledge.uz

kichkintoylarda mas'uliyatli bo‘lishni tarbiyalaydi. Bola jamoada hamjihat ishlash, atrofdagilar bilan murosada bo‘lishga o‘rganib boradi. Har bir qoidali o‘yinlar o‘z g‘oyasi va mazmuniga egadir. O‘yin davomida qoidalarning to‘g‘ri bajarilishi “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri”, “o‘yin qoidasi buzildi” degan baholar bilan belgilanadi. Bolalar o‘yin vaqtida o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganib boradi. Albatta, har bir o‘yin so‘ngida natija tarbiyachi tomonidan muhokama qilishi, unda qo‘yilgan maqsad qoida va erishilgan natijalarga e’tibor qaratilishi kerak. O‘yin so‘ngida qatnashchilarni rag‘batlantirish, faol ishtirokchilarni maqtash kelgusi o‘yinlarni samarali o‘tishini ta’minlaydi. Yuqorida aytib o‘tilgan barcha turdagi qoidali o‘yinlar mazmuniga ko‘ra o‘z qoidalariga ega bo‘ladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

-O‘yin harakatlari orqali amalga oshiriladigan o‘yin vazifasining mavjudligi;

-O‘ynovchilarning harakat va munosabatlari qoidalar bilan yo‘lga solib turilishi;

-O‘yinda qoida va tayyor mazmunning mavjudligi;

-O‘yinning ta’lim-tarbiyaviy mazmuni o‘yin harakatlari va qoidalarida mujassam bo‘lib, ular bolalar uchun mustaqil vazifa sifatida namoyon bo‘lmaydi.

Didaktik o‘yin – maktabgacha yoshidagi bolalarning yosh va mkoniyatlariga mos keladigan ta’lim berish metodidir. Bunday o‘yinlarga kichik bolalar uchun “Rangiga qarab top”, “Shakliga qarab top”. Katta guruh bolalari uchun “Ishchilar nimalar va qanday ishlarni biladi?”, “Dehqonlar nimalarni yetishtiradi?”, “Kim ko‘proq narsalarning nomini aytadi?”. Musiqaviy didaktik o‘yinlar orqali bolalarni tovushlarga diqqat bilan quloq solishga, ritmik shaklni gavdalantirib berishga, dinamik farqlarni bir-biridan ajratishga o‘rgatadi. (“Tovushlarni takrorla”, “Ikki metalafonni galma-gal chalish”,“O‘z ritmingni o‘ylab ol”, “Bolalar va filchalar”, “Ovchilar va O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta’lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ulanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi:

-bola harakat qiladi

- gapiradi

-idrok etadi

-o‘ylaydi.

O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o‘z o‘yinlarida ovchilik, urush, dexqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o‘sha davrdagi ba’zi

https://wordlyknowledge.uz

qabilalarning sholi sepish jarayoni o‘yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Yan Amos Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to‘g‘ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o‘yin – bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘stlashadi. Ya. A. Komenskiy o‘yinga quvnoq bolalik va bolani uyg‘un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o‘yinlariga e’tiborli munosabatda bo‘lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalahat bergan edi.

P.F.Lestgaft bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib o‘yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o‘yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg‘or olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim:

1. O‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g‘ri munosabat o‘rnatish

2. O‘yinda bolalarning bo‘lajak mehnat axliga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o‘yin:

- tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo‘lgan ijtimoiy faoliyatdir;

- o‘yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi, o‘yin ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan ongli faoliyat bo‘lib, uning mehnat bilan ko‘p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga hizmat qiladi. O‘yin faoliyati asosida boladagi o‘quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o‘ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o‘qiydi.

Ilk yoshli bolalar o‘yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o‘yin bo‘lib, u narsa-buyum-o‘yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo‘l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.Keyingi bosqich aks ettirish o‘yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o‘yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta’lim-tarbiyaviy ishlarini ma’lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o‘z o‘yinlarida qo‘llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o‘yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o‘yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo‘lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish keraqligini aks ettiradi.

Navbatdagi bosqich rolli o‘yin bo‘lib, unda bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatilarini aks ettiradilar.

https://wordlyknowledge.uz

Bolalar o‘yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to‘g‘risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o‘yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib, MTTning pedagogik jarayonda o‘yinning tutgan o‘rni juda katta bo‘lib, o‘yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

•o‘yiin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi;

•o‘yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;

•o‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

•o‘yin bolalarga ta’lim hamda tarbiya berishning metod va usulidir;

•o‘yin bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o‘yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o‘yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o‘yinining rivojlanish darajasiga ta’sir etish mumkinligini ko‘rsatdi.

Bolalar o‘yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko‘ra xilma-xildir. O‘yin faoliyati bola hayotida muhum o‘rin tutadi. Qoidali o‘yinlarning esa alohida o‘rni bo‘lib, o‘yin davomida bola shaxs sifatida shakllanib boradi.

•Qoidali o‘yin turlari.

Qoidali o‘yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o‘yinlarga quyidagilar kiradi:

-didaktik o‘yinlar
-harakatli o‘yinlar
-musiqaviy o‘yinlar
-ermak o‘yinlar.

Bolalarga ta’lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o‘yinni tanlay bilishi, unga to‘g‘ri rahbarlik qilish “MTT ta’lim hamda tarbiya dasturi” da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydi.

O‘yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o‘yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O‘yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o‘tishini ta’minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi.

O‘yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o‘zaro ta’sir etgan holda shakllanadi. O‘ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to‘g‘risidagi tasavvurini, kattalarga va o‘rtoqlariga bo‘lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o‘yiniga qizikishini, tashqilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o‘yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o‘yinlarini rivojlantirish uchun esa o‘z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo‘ladi.

https://wordlyknowledge.uz

O‘yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTTning ta’lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o‘rin tutadi.

O‘yinda bola organizmiga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o‘yin munosib o‘rin egallaydi.

O‘yin ta’lim va mashg‘ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib juda katta ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o‘yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi, o‘ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o‘ylab topadi, o‘z bilimlaridan foydalanish va uni so‘z bilan ifodalashga o‘rganadi.

O‘yinda aks ettirlayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg‘onadi. Ko‘pincha o‘yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun hizmat qiladi. Ijodiy o‘yinni tor didaktik maqsadlarga bo‘ysindirib bo‘lmaydi, bu o‘yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.quyonlar”.

Adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
2. Kayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T:.2013 y
3. Назирова, Г. М., and Ф. М. Рахимова. "Методологические основы формирования творческой деятельности будущих педагогов-воспитателей." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 334-339.
4. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna, and Zoya Mixaylovna Burdina. "Issues of organization and management of inclusive education and upbringing in uzbekistan." International Academic Research Journal Impact Factor 7.4 1.6 (2022): 112-118.
5. Raximova, F. M. "Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies." Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 54-57.
6. Mukhammadzhonovna, Rakhimova Feruzakhon. "Problems of development of creative abilities in preschoolers." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
7. Mukhammadjonovna, Rakhimova Feruzakhon. "Development of pedagogical activites with preschool children in need of inclusive education."Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 423-427.
8. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna. "Problems with the social attitude of the individual."Innovative development in the global science 2.9 (2023): 112-121.

https://wordlyknowledge.uz

9. Muxammadjonovna, Raximova Feruzaxon. "Difficulties in organizing the education and upbringing of visually impaired children of preschool age."International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.12 (2022): 90-93.
10.Kodirova F.R., Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va va metodikasi. T. ”ISTIQLOL, 2006 y. O‘quv qo‘llanma.
11.Kodirova F.R. “Nutq o‘stirish metodikasi” U UM T.; 2012 yil.(elektron).

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz